

**Bobur nomidagi Andijon viloyati
axborot–kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati**

*Durbek Qoʻldoshev tavalludining
75 yilligiga*

BOBUR TILIDA SOʻZLAYOTGAN ADIB

Bibliografik koʻrsatkich



Andijon – 2024

KIRISH

Adabiyot – insonlarni birlashtiradi, ko'ngillarni obod qiladi. Adabiyot – dillarni ravshanlashtiradi, qalbdagi g'uborlarni yuvadi. Millatimizning mashhur shoiri, andijonlik Cho'lpon ta'biri bilan aytganda “Adabiyot yashasa millat yashaydi”. O'zbek adabiyoti iqtidorli ijodkorlarga hamisha boy bo'lgan. Bugun adabiyotning turli janrlarida mahorat bilan qalam tebratayotgan adiblar orasida Durbek Qo'ldoshev ijodi alohida ajralib turadi.

Sevimli ijodkorimiz Durbek Qo'ldoshev 1949-yil 12-iyunda Andijon viloyati Paxtaobod shahrida, ziyolilar oilasida tavallud topgan. 1966-yili o'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlab, Andijon paxtachilik institutining Hidromelioratsiya fakultetiga o'qishga kiradi. Oliygo'hnini muvaffaqiyatli tamomlagan Durbek Qo'ldoshev Respublika “Gidrovodxoz” loyiha instituti Andijon filialida oddiy loyihachi sifatida ish boshlaydi. O'z sohasini yetuk mutaxassisi bo'lganligi sababli 1981-1983-yillar mobaynida Mazambik Xalq Respublikasida xizmat safarida bo'lib, sug'orish masalalari bo'yicha katta maslahatchi lavozimida faoliyat olib boradi. Safardan qaytgach uzoq yillar davomida Andijon viloyatining qishloq va suv xo'jaligi tizimining bir qator tashkilotlarida bosh mutaxassis va rahbar lavozimlarida mehnat qiladi.

Otasi Jo'ra Qo'ldosh taniqli shoir, adabiyotshunos, tarixchi olim bo'lib, ijodga, adabiyotga mehr qo'ygan inson edi. U Paxtaobod tumani tarixiga atab “Mustaqillik nuri bilan”, o'zi ishlagan Paxtaobod tumani xalq ma'orifi tarixini chuqur o'rganib “Ma'rifat nomi bilan” nomli kitoblarni hamda o'zi orzu qilgan haj safaridan qaytgandan so'ng bu voqeaga atab “Zamzam” dostonini yozadi. Jo'ra Qo'ldosh ijodkor sifatida ko'plab ishlar qildi. Mehnatlari samarasi o'laroq “Ziyo izlab” kitobi dunyoga keldi. Ijodga bo'lgan mehr-muhabbatni Durbek Qo'ldoshev otasidan o'rgandi. U esdaliklarida: “Bir kuni qo'limga qadimgi turkiy tilda yozilgan tarixiy asar “Boburnoma” ni berib, otam: shuni albatta o'qib chiq, deb tayinladi”, deydi ijodkor. Bu asar unga qattiq ta'sir qiladi va o'sha bolalik paytlaridanoq Bobur Mirzo shaxsiga mehr qo'yadi. Yillar davomida boshqa sohada faoliyat yuritisa-da, kitob o'qishga, ijodga bo'lgan mehri so'nmadi. Badiiy ijod bilan

2008-yildan buyon shug'ullanib kelayotgan Durbek Qo'ldoshevning ijod namunalari Respublika va viloyat gazeta, jurnallarida muntazam chop etilib borilmoqda. Ijodkorning ilk kitobi sanalmish "Ko'k qarg'alar qaytib kelmadi" nomli hikoyalar to'plami 2012-yilda chop etilgan bo'lib, "Qadrdon orolim", "Gunohkor" va "Baxt qushi" kabi o'nga yaqin hikoyalari, jamiyatdagi ayrim illatlarni fosh qiluvchi kichik hajviyalari o'rin olgan. Kitobdagi hikoyalar real voqelik asosiga qurilganligi bilan diqqatga sazovordir. Zero, ularning hech biri to'qib chiqarilmagan. Bu asarni kitobxonni har bir jonzotni qadrlashga, ularga mehr bilan munosabatda bo'lishga undaydi. Mazkur asarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Uni varaqlar ekansiz, qushlar, ilonlar, baliq va boshqa jonzotlarning xarakteri bilan oshino bo'lasiz.

Xalqning o'z ildizlarini jonu-tanida his qilishi kechmish hodisalar borasida sergak fikrlashi va shulardan kelib chiqib bugungi hamda ertangi kunini idrok etishining turli omillari mavjud. Ular orasida tarixning badiiy talqinini o'zida jo qiladigan adabiyot ham borki, uning ta'sir kuchini, avlodlar ongu shuurida qoldiradigan izini boshqa biror omil bilan almashtirib bo'lmaydi.

Buyuk yurtdoshimiz shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi to'g'risida dunyo miqyosida ko'plab asarlar yaratilgan. "Boburnoma"da ham, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Xayriddin Sultonning "Boburiynoma" asarlarida ham Boburning o'n ikki yoshidan keyingi taqdiri haqida hikoya qilinadi. Ul zotning Andijon zaminida kechgan baxtli bolalik davri kam yoritilgan mavzu hisoblanadi. Bolaligidan Boburga mehr qo'ygan Andijonlik yozuvchi Durbek Qo'ldoshev Bobur Mirzoning dunyoga kelgan kunidan to o'n ikki yoshga to'lgunga qadar, ya'ni mamlakat taxtiga o'tirgunga qadar bo'lgan voqealarni aks ettiruvchi "Imperatorning tug'ilishi" nomli asarini yozadi. Bu asar muallifning tarixiy manbalar asosida yaratilgan ko'p yillik ijodiy izlanishlari samarasi hisoblanadi. Ulug' siymoga chuqur ehtiromi sifatida dunyoga kelgan bu asar 10 ming nusxada "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyotida chop etilgan bo'lib, 13 ta hikoyadan iboratdir. Asarda Bobur Mirzoning o'ziga xos xislatlari ishonarli

tarzda ochib berilgan. Kitobni o'qish davomida ijodkorning Bobur Mirzo shaxsini naqadar sinchiklab o'rganganiga guvoh bo'lish mumkin.

Asar tili, obrazlar talqinini yaratishda yozuvchi tarixiy "Boburnoma" memuariga murojaat qilgan. Ko'z o'ngimizda bobokolonlarimizning nurli chehralari, saroy hayoti, sharqona urf-odatlarimiz to'lig'icha namoyon bo'ladi.

Zero, dunyoni larzaga solgan buyuk podshohlar, imperatorlar qatorida bo'lgan Bobur Mirzo haqidagi ushbu asar adabiyot xazinasiga yana bir boylik bo'lib qo'shilishi shubhasiz. Shu bilan birgalikda Jahongir Qosimov tomonidan kitob asosida badiiy film suratga olish ishlari boshlab yuborildi.



Yozuvchining "Tafakkur aql qamrovi" nomli risolasi 2019-yilda chop etilib, keng ommaga taqdim qilindi. Bir qator respublika va mahalliy gazetalarda "Bolalikning so'ngi kuni", "Haykal", "Siyrat ko'zgusi", "Tavallud", "Siringizni ayting momo", "Kutilmagan jazo", "Xovridan tushdi", "Ummon o'g'loni" kabi bir qancha hikoyalari hamda ko'plab hajviya va she'rlari nashr etildi.

Bobur nomidagi Andijon viloyat axborot-kutubxona markazining uzoq yillik faol kitobxoni bo'lgan adibning yoshlar qalbida kitob mutolaasiga mehr uyg'otish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan mehnati alohida qadrli.

Andijonlik shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, kitob taqdimoti, davra suhbatlari va boshqa shakllardagi ko'plab ma'naviy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlarimiz davomida mavzularni keng va qiziqarli tarzda kitobxonga yetkazib berishda Durbek Qo'ldoshevning hissalari katta bo'lmoqda.

Tinib tinchimas ijodkorimiz Durbek Qo'ldoshev hozirda erkin ijod bilan band.

Durbek Qo'ldoshev oilali, u 4 nafar farzandlarini mustaqil O'zbekistonimizning rivoji uchun xizmat qiladigan insonlar qilib tarbiyaladi. Hozirgi kunda o'n ikki nafar nabiralari va 7 nafar chevarasiga o'z bilim va hayot tajribalarini erinmay o'rgatib kelmoqda.



IJODKORNING ASOSIY ASARLARI

1. Quldoшев, Д. Кўк қарғалар қайтиб келмади / Д. Қўлдошев. – Тошкент : Шарқ нашриёт манбаа ижодий уюшмаси, 2012. – 96 б.
2. Quldoшев, Д. Императорнинг туғилиши / Д. Қўлдошев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти. – 2018. – 320 б.
3. Quldoшев, Д. Тафаккур – ақл қамрови / Д. Қўлдошев. – Андижон : Андижон нашрети, 2019. – 66 б.
4. Quldoшев, Д. Ломоносов келармиш?! / Д. Қўлдошев. – Тошкент : Мухаррир нашриёти, 2021. – 88 б.

Vaqtli matbuotda chop etilgan asarlari:

5. Quldoшев, Д. Ватан посбонларига : [шеър] // Ватанпарвар. – 2008. – 20 июнь.
6. Quldoшев, Д. Очикдаги тутқунлар : қатра // Xolis. – 2008. – 1 окт.
7. Quldoшев, Д. Кириб келинг // Xolis. – 2008. – 8 окт.

8. Қўлдошев, Д. Сўнгги учрашув: [таниқли хажвчи Хожибой Тожибоевни хотирлаб] // Xolis. – 2008. – 22 окт.
9. Қўлдошев, Д. Худуд: [] ҳажвий қатра // Xolis. – 2008. – 29 окт.
10. Қўлдошев, Д. Қийин савол : ҳажвий қатра // Xolis. – 2008. – 12 нояб.
11. Қўлдошев, Д. Тушликда ҳам ейишган. // Xolis.– 2008. – 3 дек.
12. Қўлдошев, Д. Шоир ва заргар : [минг бир ривоят] // Xolis. – 2008. – 3 дек.
13. Қўлдошев, Д. Энг тубан қусур: [фирибгарлик] // Xolis. – 2008. – 10 дек.
14. Қўлдошев, Д. Гупирдинг қовун туширди // Xolis.– 2008. – 31 дек.
15. Қўлдошев, Д. Уммон ўғлони: [ҳикоя] // Xolis. – 2009. – 28 янв.
16. Қўлдошев, Д. Газетанинг салмоғи // Xolis.– 2009. – 45 сон
17. Қўлдошев, Д. Ижодий бағрикенглик : [ривоят] // Xolis. –2009. – 11 февр.
18. Қўлдошев, Д. “Холис” интеллектуал ўйинига марҳамат // Xolis. – 2009. – 18 февр.
19. Қўлдошев, Д. Бахт куши : [қатра] // Xolis. – 2009. – 11 март.
20. Қўлдошев, Д. Сирингизни айтинг момо : [“Олтин қалам” танловига] // Xolis.– 2009. – 18 март.
21. Қўлдошев, Д. Донишмандлик сири: [оз – оз ўрганиб] // Xolis. – 2009. – 25 март
22. Қўлдошев, Д. Даҳшатли момақалдиروق : [воқеий ҳикоя] // Xolis. – 2009. – 29 апр.
23. Қўлдошев, Д. Даҳшатли момақалдиروق : [воқеий ҳикоя] // Xolis. – 2009. – 6 май.
24. Қўлдошев, Д. Балиқ овида : [ҳикоя] // Xolis. – 2009. – 20 май.
25. Қўлдошев, Д. Амалга ошмаган битим: [ҳикоя] // Xolis. – 2009. – 10 июнь
26. Қўлдошев, Д. Амалга ошмаган битим: [ҳикоя] // Xolis. – 2009. – 17 июнь
27. Қўлдошев, Д. Лафзи халоллик : биринчи ҳикоят // Xolis. –2009. – 29 июль

28. Қўлдошев, Д. Лавфсизлик : иккинчи ҳикоят // Xolis. –2009. – 5 авг
29. Қўлдошев, Д. Ким “Сахар”? : [ҳажвия] // Xolis. –2009. – 19 авг
30. Қўлдошев, Д. Ҳаром луқма : [ривоят] // Xolis. –2009. – 14- 21 окт.
31. Қўлдошев, Д. Кийикча : [буюк император Бобурнинг болалик йилларидан бир лавҳа] // Xolis. – 2009. – 28 окт.
32. Қўлдошев, Д. Газетанинг салмоғи : [ҳажвий қатра] // Xolis. – 2010. – 10 – 16 нояб.
33. Қўлдошев, Д. Ватан посбонларига : шеър // Xolis. –2010. – 13 янв.
34. Қўлдошев, Д. Чиндан келтирилган совға : [ҳикоя] // Xolis. –2010. – 20 янв.
35. Қўлдошев, Д. Эгар : [ҳажвия] // Xolis. –2010. – 27 янв.
36. Қўлдошев, Д. Қадрдон оролим. // Xolis. – 2010. – 17 март
37. Қўлдошев, Д. Мечкай илон: [воқеий ҳикоя] // Xolis. – 2010. – 7 апр.
38. Қўлдошев, Д. “Бабақ”нинг кечмишлари парранда тилга кирганда // Xolis. – 2010. – 5 май.
39. Қўлдошев, Д. Эл суйган раҳбар эди: [сув хўжалиги дарғаларидан бири - Ҳамид Қодиров ҳақида] // Xolis. – 2010. – 12 май.
40. Қўлдошев, Д. Шикор : [ҳикоя] // Шарқ юлдузи. – 2010. – № 6 . – Б. 120-130
41. Қўлдошев, Д. Подшоҳнинг туғилиши : [ҳикоя] // Xolis. – 2010. – 22 дек.
42. Қўлдошев, Д. Ҳовридан тушди: [ҳажвия] // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2011. –№ 7.
43. Қўлдошев, Д. Таваллуд : [ҳикоя] // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2011. – 11 февр..
44. Қўлдошев, Д. Кўк қарғалар қайтиб келмади: [ҳикоя] // Xolis. – 2011. – 16 март
45. Қўлдошев, Д. Хандалак сайли : [ҳикоя] // Xolis. – 2012. – 25 янв.
46. Қўлдошев, Д. Хандалак сайли: [ҳикоя] // Xolis. – 2012. – 8 февр.
47. Қўлдошев, Д. Табаррук тобулғу шифобахш рўян // Xolis. –2012. – 6 июнь.
48. Қўлдошев, Д. Хайкал // Xolis. – 2012. – 17 окт.

49. Қўлдошев, Д. Антиқа балиқ ови // Xolis. – 2013. – 13 февр.
50. Қўлдошев, Д. Достон бўлғувси : сафарнома // Истиклол қуёши. – 2013. – 11 июль.
51. Қўлдошев, Д. Сийрат кўзгуси : [кўнгил чизгилари] // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2013. – 4 окт.
52. Қўлдошев, Д. Кўнгилдан кечган фикрлар // Xolis. – 2013. – 12 дек; 26 дек;
53. Қўлдошев, Д. Кўнгилдан кечган фикрлар // Xolis. – 2014. – 9 янв.
54. Қўлдошев, Д. Болаликнинг сўнгги куни // Xolis. – 2014. – 13 февр.
55. Қўлдошев, Д. Болаликнинг сўнгги куни // Xolis. – 2014. – 20 февр.
56. Қўлдошев, Д. Хуфиёна битим : [хикоя] // Шарқ юлдузи. – 2014. – № 2. – Б. 119-121
57. Қўлдошев, Д. Сирингизни айтинг момо // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2015. – 22 авг
58. Қўлдошев, Д. Болаликнинг сўнгги куни // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2015. – 13 фев.
59. Қўлдошев, Д. Ҳажвий қатралар // Qishloq oqshomi. – 2015. – 29 окт.
60. Қўлдошев, Д. Кутилмаган жазо ривоят // Xolis. – 2015. – 4 окт.
61. Қўлдошев, Д. Кўнгилдан кечган фикрлар // Qishloq oqshomi. – 2015. – 15 нояб.
62. Қўлдошев, Д. Табаррук тобулғу ва шифобахш рўян // Фермер. – 2016. – март.
63. Қўлдошев, Д. Эл назарига тушган шоир : [Фарид Усмон] // Andijonnona. – 2016.
64. Қўлдошев, Д. Биз билган билмаган дунё // Куч адолатда. – 2016. – № 18.
65. Қўлдошев, Д. Императорнинг туғилиши // Водий гавҳари. – 2016. – № 10. – Б. 42 – 45
66. Қўлдошев, Д. Императорнинг туғилиши // Водий гавҳари. – 2016. – № 11. – Б. 40 – 43
67. Қўлдошев, Д. Асл талаба: [энг билимли талаба] // Tibbiyot gulshani. – 2017. – 31 авг.

68. Қўлдошев, Д. Жамиятимиздаги икки манзара : [публицистик мақола] // Xolis. – 2018. – 1 нояб.
69. Қўлдошев, Д. Кутубхонада: [хикоя] // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2019. – 12 июль.
70. Қўлдошев, Д. “Қора ўрда” ҳалокати: [хикоя] // Шарқ юлдузи. – 2021. – №10. – Б. 34-53.
71. Қўлдошев, Д. Она ва бола: [хикоя] // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2023. – 28 апр.

Ijodkorning ijodiy faoliyati to'g'risida zamondoshlari

72. Фаол муаллифларимиз // Холис. – 2009. – 10 июль
73. Дўстмуҳаммад, Хуршид. Маънавий тарсаки оғриғи : [“Шикор” хикояси ҳақида] / Хуршид Дўстмуҳаммад // Ёшлик. – 2011. – № 8. – Б.7.
74. Капустина, Л. Вручены сертификаты ННО / Л. Капустина // Андижанская правда. – 2011. – 28 окт.
75. Аҳматхонов, В. Кўк қарғалар қайтиб келмайди // Xolis. – 2013. – 19 янв; Andijonnomi. – 2013. – 25 апр.
76. Акбарова, М. Бобурнинг болалиги ҳақида китоб / Муҳайё Акбарова // Xolis. – 2015. – 15 июль.
77. Отамирзаева, М. Императорнинг туғилиши / Муҳаббат Отамирзаева // Andijonnomi. – 2018. – 14 февр.
78. Жўраев, Б. Бобуршоҳнинг болалиги / Бекзод Жўраев // O`zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2018. – 23 февр.
79. Қўчқор, Раҳмон. Бу тупроқ фақирлар турбати эмас ... / Раҳмон Қўчқор // Yoshlar ovozi. – 2018. – 22 март.
80. Отамирзаева, М. Асар кинога кўчмоқда / Муҳаббат Отамирзаева // Andijonnomi. – 2018. – 26 дек.

81.Абдуллаева, М. Санъат коллежи ўқувчилари даврасида // Xolis. – 2018. – 25 май.

82.Кулова, Ш. Новый роман о Бабуре / Ш. Кулова // Андижанская правда. – 2019. – 15 янв.

83. Тўлқин Сиддиқ. “Императорнинг туғилиши” // Bobur kutubxonasi. – 2023. – № 4. – Б.1-2.

Tuzuvchi : Z. Shahobiddinova